

MULOQOT MUAMMOLARIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNING MAZMUN TAVSIFI

Nuritdinova Xurshida Norpo'latovna

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7445534>

Annotatsiya: Ushbu maqolada kommunikativ kompetentlikning muloqot muammolari aspektidagi mohiyat tavsifi keltirilgan bo'lib muloqotning psixologik funksiyalari, muloqotning mexanizmlari va vositalarini muloqotning funksiyalari, hamda ilmiy adabiyotlarning tahlilidan misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: kompetentsiya, til, kasbiy, rivojlanish, ta'lim, kommunikativ, lingvistik, taraqqiyot, ma'naviyat, intellektual, ilm-fan, strukturaviy komponent.

Ilmiy adabiyotlarning tahlilidan ma'lum bo'lishicha tadqiqotchilar kommunikativ kompetentlik va muloqot bilan o'z-o'zidan ayon aloqaning mavjudligini ko'rsatib, muloqot deganda biz nimani nazarda tutishimizdan, uning qaysi mohiyat tavsiflarini fundamental tavsiflar deb ajratishimizdan kommunikativ kompetentlik tushunchasining mazmun tomoni bevosita bog'liq bo'lishini ta'kidlashadi. Bundan tashqari, kommunikativ kompetentlikni har qanday ta'lim darajasi va ixtisosligida zamonaviy mutaxassisni tayyorlashning natijalaridan biri sifatida o'rganishda va bunda kommunikativ kompetentlik va muloqot kategoriyalarining o'zaro aloqasiga ishora qilish bilan, biz bu holda muloqot kategoriyasini tushunishdan nafaqat kommunikativ kompetentlik tushunchasining ma'no-mazmun to'ldirilishi, balki mutaxassisni kommunikativ kompetentlik tashuvchisi sifatida tayyorlashning natijasi qanday bo'lishini ham tushunishdan bog'liq bo'lishini anglash kerak: muloqotning u yoki boshqalarini mohiyat tavsiflari sifatida, va demak mutaxassisni har qanday kasbiy sohada kommunikativ faoliyatga tayyorlashdagi ustuvor maqsadlar-natijalar sifatida ajratib olish ularni kommunikativ kompetentlikning tarkibiy qismlari sifatida o'rganish imkonini beradi. Shu munosabat bilan, muloqot fenomenini o'rganish va uning mutaxassini tayyorlash jarayonida, uning kommunikativ kompetentligini ta'lim natijasi sifatida shakllantirish jarayonida majburiy tarzda hisobga olinishi zarur bo'lgan tomonlari, jihatlarini aniqlash yetarlicha holatga aylanadi.

Psixolog B.F.Lomov muloqotni umumpsixologik muammo sifatida uni o'rganishga quyidagi aspektlarni ajratish bilan uning muammolariga alohida e'tibor qaratadi: a) muloqotning psixologik funksiyalari; b) muloqotning mexanizmlari va vositalarini muloqotning funksiyalari, shaxsning xususiyatlari va boshqa psixologik omillarga bog'liq ravishda shakllantirilishi va amal qilishi; v) muloqotning inson psixik hayotining boshqa aspektlari bilan o'zaro munosabatlari.

Tilshunoslar ham bu muammoni e'tibordan chetda qoldirishmaydi. Ular muloqot muammosini muloqot vositalarini, til vositalarini amalga oshirish shakllari va turlarini o'rganish nuqtai nazaridan, hamda tilning eksprissiv (ifoda qilish) imkoniyatlari nuqtai nazaridan o'rganish deb qaraladi.

Muloqotning mohiyat xususiyatlariga ta'rif berish, aniqlash muammosiga murojaat qilib, olim L.P. Buyeva zamonaviy ilm-fanda uni o'rganishning quyidagi aspektlari taqdim etilganligini ta'kidlaydi:

- 1) axborot-kommunikativ (muloqot davomida axborot almashinuvi amalga oshiriladigan shaxsiy kommunikasiyaning bir ko'rinishi deb qaraladi);
- 2) interaksion (muloqot individlarning kooperasiya jarayoniida o'zaro faoliyati sifatida tahlil qilinadi);
- 3) gnoseologik (inson ijtimoiy bilish va muloqotning ham subyekti, ham obyekti sifatida qaraladi);
- 4) aksiologik (muloqot qadriyatlar almashinuvi sifatida o'rganiladi);

Muloqotni o'rganishga bo'lgan ko'plab yondashuvlarning mavjudligi ushbu fenomenning murakkabligi va ko'p tomonliligidan dalolat beradi. Tadqiqotchilar "muloqot" tushunchasining barcha mumkin bo'lgan tarkibiy qismlarini qamrab olishga intilish uning o'zining o'z tiriklik xujayrasi, tolasini yo'qotish va bizni bu tushuncha bilan bog'laydigan narsa, tushuncha, hodisaga o'xshashdan to'xtashi bilan yo'q bo'lib ketishiga, uchib ketishiga olib keladi" deb ta'kidlaydilar. Shu munosabat bilan, har qanday ilmiy fan muloqotning faqat ayrim tomonlarinigina o'zining o'rganish predmeti sifatida belgilaydi. Biroq, ko'pchilik tadqiqotchilar muloqotning universal deb atasa bo'ladigan, uning mohiyatini tushunishda belgilovchi, hal qiluvchi hisoblangan ma'lum bir tavsiflari mavjudligini tan olishadi.

Biz yuqorida zikr etganimizdek, kommunikativ kompetentlik muloqot bilan «kommunikativ kompetentlik» tushunchasining terminologik mohiyatini fikrlab/mulohaza qilib tushunishga nisbatan ham (nuqtai nazaridan ham), kommunikativ kompetentlikni mutaxassisni tayyorlash natijasi sifatida ham mulohaza qilib anglashga nisbatan ham (nuqtai nazaridan ham) yaqindan bog'liq. Shu munosabat bilan, muloqotning biz ajratib olgan mohiyat belgilarini kommunikativ kompetentlikning tushunchalar maydoni bilan solishtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yemelyanov Yu.N. Teoriya formirovaniya i praktika kommunikativnoy kompetentnosti: avtoref. dis. ...d-ra psixol. nauk: 19.00.05. – L.: Izd-vo LGU, 1991.
2. Ivanov D.A., Mitrofanov K.G., Sokolova O.V. Kompetentnostniy podxod v obrazovanii. Problemi, ponyatiya, instrumentariy: ucheb.-metod. posobiye.

3. Xutorskoy A.V. Klyucheviye kompetensii i obrazovatelnye standarti // Eydos: internet-jurnal «Sentr distansionnogo obrazovaniya». – 2002. – 23 apr.
4. Sokolova V.V. Kultura rechi i kultura obshyeniya – M.: Prosveshyeniye, 1985.